# YASHIL
## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

№6
MAXSUS SON

# BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

2025

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

*Elektron nashr. 225 sahifa.*
*E'lon qilishga 2025-yil mayda ruxsat etildi.*

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Karimov Norboy G'aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**



**Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna,** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Maxmudov Nosir,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Ikrom Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Hakimov Nazar Hakimovich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
**Ali Konak (Ali Ko'nak),** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
**Cham Tat Huei,** falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
**Utayev Uktam Choriyevich,** O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
**Ochilov Farkhod,** O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Axmedov Javohir Jamolovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
**Djudi Smetana,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Krissi Lyuis,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Glazova Marina Viktorovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Sevil Piriyeva Karaman,** falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li,** TDIU ITI departamenti rahbari
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li,** TDIU katta o'qituvchisi

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Editorial board:**

**Salimov Okil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Rae Kwon Chung, South Korea,** Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
**Osman Mesten,** Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Sayfullo Normatovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Siddikova Sadokat Gafforovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Makhmudov Nosir,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Samadov Askarjon Nishonovich,** Candidate of Economic Sciences, Professor
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Ikrom Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khakimov Nazar Khakimovich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
**Ali Konak,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
**Cham Tat Huei,** Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
**Ochilov Farkhod,** Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
**Judi Smetana,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Chrissy Lewis,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Glazova Marina Viktorovna,** Candidate of Economic Sciences (Moscow)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Sevil Piriyeva Karaman,** Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli,** Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Po‘latov Baxtiyor Alimovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Rustamov Ilhomiddin,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**G‘afurov Doniyor Orifovich,** pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** katta o‘qituvchi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:
**Berkinov Bazarbay,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khalikov Suyun Ravshanovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Rustamov Ilkhomiddin,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Kamilova Iroda Khusniddinovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
**Gafurov Doniyor Orifovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
**Fayziyev Oybek Rakhimovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** Senior Lecturer
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:
““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 28-fevraldagi 333/5-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

# MUNDARIJA

Strategies for achieving sustainable growth through green economy transition ....14
**Umida Kakhramonova Gayratovna, Tillayev Khurshidjon Sulaymon oglu**

Current state and development prospects of tourism: comparative analysis and Uzbekistan's experience ....20
**Risolatbonu Shakhzodova, Laziza Khalilova, Nabijonov Biloliddin, Aziza Usmanova**

Инновационные подходы к повышению эффективности корпоративного управления ....26
**Тлеумуратова Мадинабону Дилмурат кизи, Уринов Бабур Насиллоевич**

Startup проекты и их реализация ....30
**Ёдгорова Мухайе Шухратовна, Иминова Наргиза Акрамовна**

Methodology of Teaching English: Traditional and Modern Approaches ....34
**Ravshanova Ziyoda Qahramon Qizi, Xoliqova Dilafruz Shuhratovna**

Государственный кредит и государственный долг ....37
**Срожиддинова З.Х., Тухтасинова Д.Н.**

Сравнительный анализ реформ государственных финансов в китае и грузии: уроки для Узбекистана ....42
**Срожиддинова Зарина Хайриддиновна, Шарифзода Мубина Дилмуроджон кизи**

Korxonalarda asosiy vositalar hisobini yuritishni takomillashtirish ....49
**Shakarov Shahzod Sobir o'g'li, Po'Latov Xudoyberdi Uktamovich, Esanov Oybek Madatovich**

Sustainable consumption and production: economic challenges and solutions ....55
**Abdullayev Abdug'ofur, Abdubaxromov Abduazim, Eshniyozov Ozodbek, Azizbek Abdullayev**

Traffic congestion in uzbekistan: causes and strategic solutions ....60
**Abdulloh Qodirov, Imron Egamberdiyev, Isomiddin Ravshanov, Munisa Bekmirzayeva**

The relationship between corruption and economic growth ....64
**Jurayev Jo'rabek, Abdullayeva Aziza, Mamatova Sarvinoz, Maha Ibrahim**

Crisis management in the tourism industry ....74
**Ikromova Munisa, Bahodirova Mohigul, Xalimova Dilbar, Abdullajonova Muslimabonu**

Impact of the touristic indicators on the poverty rate ....80
**Abdumanova Maftuna, Azizova Ruhshona, Shavkatova Mubiynabonu, Durdona Bahodirova**

Bringing sustainability: the role of the green economy in enhancing resource efficiency ....91
**Salokhiddinova Farangiz, Mardonov MuhammadYusuf, Shovkiyeva Munisa, Ahmadova Xurshida**

The relationship between innovation and environmental emissions ....98
**Mamadiyorova Ruxshona, Nurullayev Asliddin, Abduraimov Sardor Anvar o'g'li, Aysayeva E'zoza**

Green finance unlocked: innovations, challenges in uzbekistan's perspectives ....107
**Dildora Khodjaeva Mukhamedkhodjaevna, Jamolova Madina Talgatovna, Lola Qidiralieva Ulug'bekovna**

Turning the tide: how uzbekistan can tackle its water crisis ....115
**Rixsiboyev Mirhaydar, Orazov Kamron, Baratov Shakhriyor, Bahromjon Urmanov**

Drivers and losses of economic development of tashkent: a desk study ....125
**Zaribbaeva Komila Ulugbek qizi, Durdona Davletova**

The digital economy in uzbekistan: challenges and opportunities ....133
**Ro'zmatov Asror, Bo'riyev Javohir, Safarov Habibullo, Mubina Toirova**

Analysis of water concumption in Uzbekistan ....139
**Rayimjonova Gulsora, Sarvinoz Murodova, Yahyoyeva Nurhayo, Durdona Zaynutdinova**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Global leadership and cross-cultural management: an empirical analysis of intercultural communication competence (icc) in uzbekistan ........ 144
**Dr. Eka Surchman, ST, MT, Annisa ciptagustia, SE, M.SI, Abdurakhmanova Iroda Gulmurod qizi**

iqtisodiy masalalarni matritsa nazariyasi asosida modellashtirish va python dasturlash tilida yechish ........ 154
**Tojiyev Ilhom Ibraimovich, To'rayeva Feruza Dilmurodovna, Namozova Barchinoy G'ayrat qizi, Baxronova Zuhra Otaniyoz qizi**

Raqamli to'lov tizimlarining naqd pulsiz iqtisodiyotga o'tishdagi o'rni ........ 167
**Jo'rabekova Xumora Muzaffar qizi, Saidov Rasul Boltabayevich**

Рост зеленой экономики во всем мире ........ 172
**Баймурадова Зилола Алишеровна, Бобуржон Бахриддинович Избосаров**

Raqamli iqtisodiyotda soliq boshqaruvining transformatsiyasi: soliq tizimining avtomatlashtirilishi samarasi ........ 181
**Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li, Maqsudov Bunyod Abdusamat o'g'li**

Problems and prospects of developing small business in uzbekistan under the conditions of a green economy ........ 187
**Baymuradova Zilola Alisherovna, Boburjon Bahriddinovich Izbosarov**

Turizm va mehmondo'stlikning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta'siri ........ 197
**Anvarova Muhsinaxon Otabek qizi**

Zamonaviy mehnat bozorida axborot asimmetriyasi va uning oqibatlari ........ 203
**Tojialiyev Sherdorbek Elmurod o'g'li, Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li**

Mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda xususiy tadbirkorlikni o'rni ........ 206
**Ergasheva Dilnoza Anvar qizi, Absamatov Asqar Ergashovich**

Ipoteka kreditlash tizimini takomillashtirishning amaliy yo'nalishlari ........ 211
**Almuratova Nurlio'lmasoy Naym qizi**

Xususiy sektorni moliyalashtirishning ichki va tashqi mexanizmlari va boshqaruv tizimlarini takomillashtirishning ayrim istiqbolli tomonlari ........ 214
**Ametov Quvandik Mamatjanovich, Karrieva Dildora Ruslan qizi**

Yashil energetika - barqaror iqtisodiyotning kaliti sifatida ........ 219
**Sharipboyev Husanboy Marks o'g'li, Umirov Islombek Furkatovich**

# YASHIL ENERGETIKA - BARQAROR IQTISODIYOTNING KALITI SIFATIDA



**Sharipboyev Husanboy Marks o'g'li**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Samarqand filiali talabasi
Email: sharipboyevhusanboy24@gmail.com
ORCID: 0009-0000-7496-7511

Ilmiy rahbari:
**Umirov Islombek Furkatovich**
Phd

Annotatsiya: XX asr oxiri va XXI asr boshlarida an'anaviy energiya manbalaridan ortiqcha foydalanish global ekologik va iqtisodiy muammolarning kuchayishiga olib keldi. Ushbu maqolada yashil energetika texnologiyalarini sanoat, ishlab chiqarish hamda ijtimoiy sohalarga joriy etish orqali bu muammolarni bartaraf etish yo'llari tahlil qilinadi. Tadqiqotda statistik ma'lumotlar, taqqosloviy tahlil hamda milliy va xalqaro tajribalar asosida ilmiy yondashuv qo'llanilgan. O'zbekiston Respublikasida yashil energetika iste'molining 2020–2040-yillar oralig'idagi holati va rivojlanish prognozlari keltirib o'tilgan. Yakunda yashil energetikaning barqaror iqtisodiy o'sishga qo'shayotgan hissasi, dolzarb muammolar va ularni hal etish bo'yicha amaliy tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: yashil energetika, tiklanadigan energiya, barqaror o'sish, global energetika, ekologik muammolar, geotermal energiya, biomassa.

Abstract: The excessive use of traditional energy sources at the end of the 20th and beginning of the 21st centuries led to an increase in global environmental and economic problems. This article analyzes ways to eliminate these problems by introducing green energy technologies into industry, production, and social spheres. The study uses a scientific approach based on statistical data, comparative analysis, and national and international experience. The state of green energy consumption in the Republic of Uzbekistan for 2020–2040 and development forecasts are presented. Finally, the contribution of green energy to sustainable economic growth, current problems, and practical recommendations for solving them are described.

Key words: green energy, renewable energy, sustainable growth, global energy, environmental problems, geothermal energy, biomass.

Аннотация: В конце XX и начале XXI веков чрезмерное использование традиционных источников энергии привело к обострению глобальных экологических и экономических проблем. В статье анализируются пути преодоления этих проблем путем внедрения технологий зеленой энергетики в промышленность, производство и социальную сферу. В исследовании использовался научный подход, основанный на статистических данных, сравнительном анализе, а также национальном и международном опыте. Представлены текущее состояние и прогнозы развития потребления зеленой энергии в Республике Узбекистан на период 2020-2040 годы. В заключение излагаются вклад зеленой энергетики в устойчивый экономический рост, текущие проблемы и практические рекомендации по их решению.

Ключевые слова: зеленая энергетика, возобновляемая энергетика, устойчивый рост, глобальная энергетика, экологические проблемы, геотермальная энергия, биомасса.

## KIRISH

XX asrning 70-yillarida yuzaga kelgan xalqaro energiya inqirozi ko'plab mamlakatlarni energiyadan foydalanish strategiyasini qayta ko'rib chiqishga va energiya tejamkorligiga oid yangi chora-tadbirlarni ishlab chiqishga majbur qildi. Global energiya iste'molining ortib borayotgani, energiya resurslarining cheklangani va narxlarning oshib borishi, shuningdek, importga yuqori darajadagi bog'liqlik hamda ekologik muammolar — bularning barchasi energetika sohasida samarali boshqaruvni takomillashtirish va yangi alternativ manbalarni izlash zaruratini yuzaga keltirdi.

Bugungi kunda barqaror iqtisodiy rivojlanish darajasi bevosita energiya resurslarining mavjudligi va ulardan oqilona foydalanish bilan chambarchas bog'liq. Jahon bo'yicha aniqlangan tabiiy energiya zaxiralari faqat hozirgi iste'mol darajasida saqlanib qolgan taqdirda ham yaqin 50 yil atrofida ehtiyojni qondira oladi. Ayni vaqtda esa global iqtisodiyotda energiyaga bo'lgan talab izchil o'sib bormoqda, bu esa energetik tanqislik xavfini yanada kuchaytiradi.

Tahlillarga ko'ra, energiyadan samarali foydalanish orqali dunyo miqyosida har yili 100 million terajoulgacha energiya yoki 0,2–1,2 trillion AQSH dollarigacha mablag' tejash mumkin.[1]

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil energetika va barqaror iqtisodiyot masalalari so'nggi yillarda jahon ilmiy hamjamiyatining diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Ko'plab ilmiy adabiyotlarda energiya resurslarining cheklanganligi, iqlim o'zgarishlari va atrof-muhitga salbiy ta'sirlar fonida energiya tizimini ekologik barqaror yo'nalishga o'tkazish zaruriyati ta'kidlanadi.

Xalqaro miqyosda REN21 (Renewable Energy Policy Network for the 21st Century) va BP tomonidan har yili e'lon qilinadigan hisobotlarda tiklanadigan energiya manbalarining rivojlanish tendensiyalari, mamlakatlar kesimidagi siyosiy-texnik yondashuvlar va investitsion oqimlar tahlil qilinadi. Bu hisobotlar orqali dunyoda quyosh, shamol va geotermal manbalar asosidagi elektr energiyasi ulushi yil sayin oshib borayotgani kuzatiladi[2].

UNIDO tomonidan ishlab chiqilgan energiya strategiyasida esa yashil energetikani rivojlantirish orqali iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirish, issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish va aholining energiya ta'minotiga bo'lgan teng huquqli kirishini ta'minlash ustuvor yo'nalish sifatida ko'rsatiladi. Ushbu yondashuvlar sanoat tarmoqlarida energiya samaradorligini oshirish orqali iqtisodiy barqarorlikka erishish g'oyasini ilgari suradi.

McKinsey & Company va IEA (International Energy Agency) tadqiqotlarida esa global energiya ssenariylari ishlab chiqilib, yashil texnologiyalarning joriy etilishi natijasida energiya tejami va iqtisodiy foyda salohiyati ilmiy asosda tahlil etiladi. Ularning prognozlariga ko'ra, jadal ssenariy bo'yicha 2035-yilga borib energiya samaradorligini 70 foizgacha oshirish imkoniyati mavjud[3].

Milliy adabiyotlarda, xususan, O'zbekiston olimlari tomonidan yozilgan ilmiy maqola va monografiyalarda yashil iqtisodiyot konsepsiyasi, tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishning mamlakatimiz sharoitida joriy etilishi, energetika siyosatining isloh qilinishi hamda ekologik barqarorlik masalalari yoritilgan. Masalan, iqtisodchi olimlar tomonidan yozilgan ishlarda quyosh energiyasining salohiyati, shamol va biogaz texnologiyalarining hududiy imkoniyatlari haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Xususan, M. X. Rustamovning "O'zbekistonda yashil energiya va barqaror rivojlanish" nomli tadqiqotida quyoshli kunlar sonining yiliga 300 kundan ortiq bo'lishi O'zbekiston hududida yirik quyosh elektr stansiyalarini barpo etish uchun qulay sharoit yaratishi ta'kidlangan. Shuningdek, Qoraqalpog'iston, Navoiy va Buxoro viloyatlarida shamol energiyasi salohiyatining yuqoriligi, qishloq xo'jaligi chiqindilaridan biogaz olish imkoniyatlari va bularning iqtisodiy samaradorligi haqida ham tahliliy yondashuv berilgan. Ushbu manbada yashil texnologiyalarning hududiy moslashuvchanligi va barqaror rivojlanishga ta'siri keng yoritilgan[4].

Xulosa qilib aytganda, mavjud adabiyotlar yashil energetikaning iqtisodiy, ekologik va texnologik jihatlarini yoritgan holda, ushbu sohaning barqaror rivojlanishdagi hal qiluvchi rolini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, milliy va mintaqaviy darajadagi amaliy yechimlar bilan boyitilgan yondashuvlar tadqiqot mavzusining dolzarbligini yanada mustahkamlaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda yashil energiyaning barqaror iqtisodiy o'sishga ta'sirini o'rganish uchun kompleks yondashuv qo'llanildi. Metodologik asos sifatida quyidagi bosqichlar asosida harakat qilindi:

1 BP. Statistical Review of World Energy 2023. London: BP, 2023.
1 REN21 Global Status Report 2024, Renewable Energy Policy Network for the 21st Century, https://www.ren21.net
3 McKinsey & Company, "The net-zero transition: What it would cost, what it could bring," 2023, va International Energy Agency (IEA), "World Energy Outlook 2023
4 M. X. Rustamov, O'zbekistonda yashil energiya va barqaror rivojlanish, Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2022.

Tahliliy yondashuv (analitik metod) – yashil energiyaning global va milliy darajadagi rivojlanish tendensiyalari, iqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta’siri xalqaro tashkilotlar IEA, IRENA, World Bank hamda O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi va Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tahlil qilindi. Solishtirma tahlil (komparativ metod) – rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarning yashil energiya siyosatlari va iqtisodiy samaradorligi solishtirildi. Bu orqali O‘zbekiston uchun qaysi tajribalarni moslashtirish mumkinligi aniqlashtirildi. Statistik usul – energiya ishlab chiqarish va iste’molga oid raqamli ko‘rsatkichlar (quyosh, shamol, gaz, neft ulushi) grafik va jadvallar orqali tahlil qilindi. So‘nggi yillardagi o‘sish sur’atlari va istiqbolli prognozlar ko‘rsatildi. Normativ-huquqiy tahlil – O‘zbekiston Respublikasining yashil energiya sohasidagi strategik hujjatlari, qonunlar, hukumat qarorlari va xalqaro bitimlari (masalan, Parij kelishuvi) o‘rganildi. Ekspert yondashuvi (konsultativ metod) – energetika sohasi bo‘yicha mahalliy va xalqaro ekspertlarning fikrlari, tahliliy hisobotlari va prognozlariga tayangan holda ilmiy xulosalar chiqarildi.

Mazkur yondashuvlar orqali yashil energiyaning iqtisodiy o‘sishdagi real roli, mavjud muammolar va istiqbolli yo‘nalishlar aniqlab olindi. Tadqiqotda asosiy e’tibor O‘zbekiston sharoitida yashil energiya salohiyatini ochib berishga qaratildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tarixan asosiy energiya manbai sifatida foydalanilgan qazilma yoqilg‘ilar o‘z o‘rnini tobora tiklanadigan energiya manbalariga bo‘shatmoqda. Prognozlarga ko‘ra, 2030-yilga borib, dunyo elektr energiyasining 36 foizi quyosh va shamol elektr stansiyalari orqali ishlab chiqariladi.

“Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasiga muvofiq, energiya samaradorligini oshirish hamda tabiiy resurslardan foydalanishni optimallashtirish orqali 2050-yilga borib global energiya sig‘imdorligi 50 foizga qisqaradi. Natijada 0,9–1,6 trillion AQSH dollari miqdorida resurslar tejashga erishiladi.

So‘nggi yillarda energiya iste’molining ortib borishi va ekologik inqiroz xavfini kamaytirish ehtiyoji jahon miqyosida tiklanadigan energiya manbalariga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirmoqda. Bunga quyidagi omillar sabab bo‘lmoqda:

ilg‘or texnologiyalar orqali tiklanadigan energiyaning tannarxi pasayib, raqobatbardoshligi ortmoqda;

davlat siyosatida ekologik barqarorlikka qaratilgan tashabbuslarning ko‘payishi;

investorlar uchun qulay sharoitlar va barqaror investitsiya muhiti yaratilmoqda;

rivojlanayotgan mamlakatlarda energiyaga bo‘lgan talab ortmoqda;

barchaga teng energiya ta’minoti va energetik yetishmovchilik muammosini hal qilish ehtiyoji tobora dolzarblashtirmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Sanoatni rivojlantirish tashkiloti ([UNIDO]) tomonidan ishlab chiqilgan energiya strategiyasi “yashil energetika”ni rivojlantirishni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilaydi.[5] Mazkur strategiya doirasida quyidagi yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratilmoqda:

past daromadli aholiga zamonaviy, ekologik toza energiya xizmatlarini taqdim etish;

sanoatda energiya sig‘imkorligini kamaytirish va shu orqali raqobatbardoshlikni oshirish;

sanoatdan chiqadigan issiqxona gazlari miqdorini kamaytirish hamda muqobil energiya manbalariga o‘tishni rag‘batlantirish;

ayniqsa qishloq joylarda muqobil energiyadan foydalanuvchi korxonalar faoliyatining barqarorligini ta’minlash.

AQSH Energiya departamenti ma’lumotlariga ko‘ra, 2012-yilda global energiya iste’moli 13,8 milliard t.n.e.ni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2040-yilga borib 20,5 milliard t.n.e.gacha yetishi kutilmoqda. Bu esa yiliga o‘rtacha 1,4 foiz o‘sishni anglatadi. Ekologlar fikricha, global isishning oldini olish uchun qazib olinadigan yoqilg‘i zaxiralarining kamida yarmi qidirilmasligi yoki ishlatilmasligi lozim. Shuningdek, 2015-yildagi resurs narxlaridagi inqiroz o‘z nihoyasiga yetgan bo‘lsa-da, energiya tejovchi texnologiyalarning rivoji izchil davom etmoqda. Bu esa ko‘plab mamlakatlarning “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish bo‘yicha olgan majburiyatlariga mos keladi.[6]

McKinsey kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan ssenariylarga ko‘ra, 2035-yilga qadar energiyadan samarali foydalanish darajasi mo‘tadil ssenariyda 43 foizga, jadal ssenariyda esa 70 foizga oshishi mumkin[7].

Tiklanadigan energiya deganda tabiiy manbalardan quyosh, shamol, suv, biomassa, geotermal energiya kabi olinadigan energiya tushuniladi. Ko‘plab manbalarda bu atama o‘rniga “muqobil energiya” iborasi ham ishlatiladi. Masalan, BP hisoboti faqat elektr energiyasi ishlab chiqarishdagi tiklanadigan energiya iste’molini aks ettirsa, REN21 ma’lumotlari pirovard energiya iste’moli bo‘yicha batafsil tasnif beradi.

5 UNIDO. Sustainable Energy Strategy for Industry. United Nations Industrial Development Organization, Vienna, 2021.
6 International Energy Agency (IEA). World Energy Outlook 2023. Paris: IEA Publications, 2023.
7 McKinsey & Company. Global Energy Perspective 2022: Accelerated and orderly transitions. McKinsey & Co., 2022. [Online]. Mavjud: https://www.mckinsey.com.

"Yashil energetika" atamasi odatda quyidagi texnologiyalarni oʻz ichiga oladi:
quruqlikda va dengizda joylashtirilgan shamol turbinalari;
quyosh panellari va kichik quvvatli quyosh elektr stansiyalari;
oʻsimlik moyi yoki biomassa yoqilgʻisida ishlaydigan generatorlar;
geotermal issiqlik manbalari orqali energiya ishlab chiqarish;
kichik gidroelektrostansiyalar;
dengiz toʻlqini va suv harakatidan foydalanadigan texnologiyalar.

Ushbu texnologiyalar atmosferaga chiqayotgan zararli gazlar hajmini kamaytirib, energiya ishlab chiqarishda ekologik tozalikni ta'minlaydi. Shu bilan birga, yirik gidroelektrostansiyalar har doim ham ekologik toza hisoblanmaydi, chunki ular suv va yer ekotizimiga salbiy ta'sir koʻrsatishi mumkin.




1-rasm. Jahonda tiklanadigan energiyadan foydalanish koʻrsatkichlari

XX asrning 70-yillarida yuzaga kelgan global energiya inqirozi energiya manbalarining ishonchliligi va iqtisodiyotdagi roli masalasini jiddiy muhokamaga olib chiqdi. Ushbu muammo oqibatida bir qator mamlakatlar energiya iste'molini kamaytirish va yangi alternativ yechimlarni izlashga majbur boʻldi. Tadqiqot davomida dunyo boʻyicha energiya iste'moli, energetik xavfsizlik, atrof-muhit ifloslanishi va yashil texnologiyalarning iqtisodiy samaradorligi boʻyicha statistik ma'lumotlar tahlil qilindi.

Jahon miqyosida energiyaga boʻlgan talab yildan yilga oshmoqda. Masalan, AQSh Energetika departamenti ma'lumotlariga koʻra, 2012-yilda global energiya iste'moli 13,8 milliard tonna neft ekvivalenti (t.n.e.)ni tashkil etgan boʻlsa, bu koʻrsatkich 2040-yilga kelib 20,5 milliard t.n.e.ga yetishi prognoz qilinmoqda. Bu esa har yili oʻrtacha 1,4 foizlik oʻsishni anglatadi.

Bunday keskin oʻsish iqtisodiy barqarorlik uchun xavf tugʻdiradi, chunki qazilma yoqilgʻi zaxiralari chegaralangan, ularni ishlab chiqarish xarajatlari ortib bormoqda va ekologik jihatdan zararli hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan tiklanadigan energiya manbalarining jadal rivojlanishi kuzatilmoqda. Xususan, 2030-yilga borib global elektr energiyasining 36 foizi shamol va quyosh kabi qayta tiklanuvchi manbalar hisobidan ishlab chiqarilishi kutilmoqda.

BMT va UNIDO kabi xalqaro tashkilotlarning hisob-kitoblariga koʻra, "yashil iqtisodiyot"ga oʻtish jarayonida 2050-yilgacha jahon iqtisodiyotining energiya sigʻimkorligi 50 foizgacha kamayishi mumkin. Shu bilan birga, ekologik toza energiya manbalariga oʻtish hisobiga yillik 0,9–1,6 trillion dollar miqdorida tejamkorlikka erishiladi. Bu esa energiya samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, iqtisodiy oʻsishni qoʻllab-quvvatlash imkonini beradi.

1-jadval. Energetika sektori bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlar (2020–2040-yillar prognozi)[8]

| Ko‘rsatkichlar | 2020 y. | 2025 y. (prognoz) | 2030 y. (prognoz) | 2040 y. (prognoz) |
|---|---|---|---|---|
| Jahon umumiy energiya iste’moli (t.n.e.) | 14 mlrd. | 16 mlrd. | 18,2 mlrd. | 20,5 mlrd. |
| Tiklanadigan energiya ulushi (%) | 11% | 17% | 27% | 36% |
| Elektr ishlab chiqarishda quyosh va shamol ulushi (%) | 7% | 15% | 26% | 36% |
| Energiya tejamkorligi bo‘yicha tejalgan mablag‘ (yillik) | 400 mlrd. $ | 800 mlrd. $ | 1,2 trln. $ | 1,6 trln. $ |
| O‘zbekiston umumiy energiya iste’moli (t.n.e.) | 55 mln. | 60 mln. | 68 mln. | 80 mln. |
| O‘zbekistonda tiklanadigan energiya ulushi (%) | 4,5% | 10% | 20% | 30% |

Tahlil davomida zamonaviy tiklanadigan energiya turlarining (quyosh, shamol, biomassa, geotermal va boshqalar) texnologik va iqtisodiy jihatlari o‘rganildi. REN21 va BP kabi nufuzli manbalarning hisobotlariga tayangan holda, energiya ishlab chiqarish va iste’molidagi o‘zgarishlar monitoring qilindi. Unga ko‘ra, tiklanadigan energiyadan foydalanish faqat elektr energiyasi bilan cheklanmay, balki transport va isitish sohalariga ham kirib bormoqda.

Bundan tashqari, McKinsey kompaniyasining ssenariylariga ko‘ra, agar jadal texnologik rivojlanish amalga oshirilsa, 2035-yilga kelib energiyadan foydalanish samaradorligi 70 foizgacha ortadi. Bu esa nafaqat iqtisodiy tejamkorlikni, balki atrof-muhitni himoya qilishni ham ta’minlaydi.

Yuqoridagi ma’lumotlar asosida aytish mumkinki, yashil energetikaning jadal rivojlanishi barqaror iqtisodiy o‘sish va ekologik muvozanatni ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Hozirgi global energetika tizimida kuzatilayotgan asosiy muammolar qazilma yoqilg‘ilarning tugab borayotgani, energiya narxlarining o‘zgaruvchanligi, ekologik izlarning ortib borishi va iqlim o‘zgarishlarining kuchayishi yashil energetikaga o‘tishni nafaqat dolzarb, balki zaruriy holga aylantirdi. Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish faqat atrof-muhitni muhofaza qilish uchungina emas, balki iqtisodiy samaradorlik nuqtayi nazaridan ham afzalliklarga ega. Jahon miqyosida olib borilayotgan islohotlar, qabul qilingan dastur va strategiyalar yashil energetikaning global iqtisodiyotdagi ahamiyatini oshirib bormoqda.

Milliy iqtisodiyotlarning barqaror rivojlanishini ta’minlashda yashil energetikaga asoslangan yondashuvlar ayniqsa muhim. Ayniqsa, energiya importiga yuqori darajada bog‘liq bo‘lgan davlatlar uchun bu yo‘nalish iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash vositasiga aylanmoqda. Shuningdek, energiya samaradorligini oshirish, issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish va energetik mustaqillikka erishish borasidagi harakatlar bevosita yashil energetika texnologiyalarining joriy etilishi bilan bog‘liq.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

Yashil energetika texnologiyalarini ommalashtirish maqsadida davlat tomonidan subsidiya va soliq imtiyozlari orqali qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish lozim.

Ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni kuchaytirish, ayniqsa, quyosh, shamol va geotermal energiya bo‘yicha mahalliy texnologiyalarni rivojlantirishga e’tibor qaratish zarur.

Hududiy darajada muqobil energiya loyihalarini ishlab chiqish, xususan, qishloq joylarda energiya ta’minotini yaxshilash orqali iqtisodiy faollikni oshirish mumkin.

Ta’lim va axborot tarqatish ishlari orqali aholining ekologik madaniyatini oshirish, bu orqali yashil energiyaga o‘tish jarayoniga ijtimoiy tayyorgarlikni ta’minlash maqsadga muvofiqdir.

8 BP Statistical Review of World Energy 2020 ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Xalqaro tajriba va investitsiyalarni jalb qilish, xorijiy hamkorlik doirasida texnologik almashinuvlar asosida zamonaviy energetika tizimini shakllantirishga e’tibor qaratilishi kerak.

Yashil energetika — bu kelajak iqtisodiyotining asosi. Bu yo‘nalishda aniq strategik yondashuv va qat’iy siyosiy iroda bilan harakat qilinsa, barqaror rivojlanish va iqtisodiy xavfsizlikka erishish imkoniyatlari kengayadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. BP. Statistical Review of World Energy 2023. London: BP, 2023.
2. UNIDO. Sustainable Energy Strategy for Industry. United Nations Industrial Development Organization, Vienna, 2021.
3. International Energy Agency (IEA). World Energy Outlook 2023. Paris: IEA Publications, 2023.
4. McKinsey & Company. Global Energy Perspective 2022: Accelerated and orderly transitions. McKinsey & Co., 2022. [Online]. Mavjud: https://www.mckinsey.com
5. BP Statistical Review of World Energy 2020 ma’lumotlari asosida tuzilgan.
6. REN21 Global Status Report 2024, Renewable Energy Policy Network for the 21st Century, https://www.ren21.net
7. McKinsey & Company, “The net-zero transition: What it would cost, what it could bring,” 2023, va International Energy Agency (IEA), “World Energy Outlook 2023
8. M. X. Rustamov, O‘zbekistonda yashil energiya va barqaror rivojlanish, Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2022.
9. https://stat.uz/uz/ O’zbekiston Respublikasi milliy statistika qo’mitasi ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

## 6-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to‘plami

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz